

ONA TILI DASLIKLARIDA TA'LIMIY O'YINLARNI TASHKILLASHTIRISH

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo'rg'on talabasi

Sapayeva Ruxsora

E-mail: ruxsorasapayeva233@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola, ona tili darsida o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish, malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish, ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlar va ularning mohiyati to'g'risida misollar orqali fikr yuritadi

Аннотация: В данной статье рассматриваются устные и составление письменного коммуникативного заявления, развитие навыков и умений, творческих способностей, самостоятельное мышление, продукт творческой мысли в устной форме и в соответствии с речевыми условиями формирование навыков правильного, беглого изложения письменных форм и об обучающих играх, используемых в разработке, и их сути думает на примерах

Annotation: This article examines students' verbal and making a written communication statement, developing skills and abilities, creativity, independent thinking, the product of creative thought verbally and in accordance with the speech conditions forming the skills of correct, fluent expression in written forms and about educational games used in development and their essence thinks through examples

Kalit so'zlar: til me'yorlarini o'rgatish, nutqni o'stirish, ijodiy fikrlash,ustaqil fikrlash, topshiriqlar tizimi, so'z boyligini oshirish, o'yin-topshiriqlar.

Ключевые слова: обучение языковым нормам, развитие речи, творческого мышления, самостоятельное мышление, система заданий, увеличение словарного запаса, игровые задания.

Key words: : teaching language norms, developing speech, creative thinking, independent thinking, task system, increasing vocabulary, game-tasks.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi keng ko'lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish alohida ahamiyat kasb tmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ona tili o‘qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Ona tili ta’limining maqsadi o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgaralar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun qoidalarni, nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik. Endilikda grammatikadan ko‘ra o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, 3 gapirish, o‘qish, yozish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim.

Shunday ekan, bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya h, o‘qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va ida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish darkor.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. «Ona tili» darslarida uzundan-uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, «O‘zbek adabiyoti» darslarida ijodkor hayotidagi o‘tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida ravon so‘zlash, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalay olish, gic va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan. Rus tilida какофонический,

какофония degan so‘zlar mavjud bo‘lib, ularga lug‘atlarda quloqqa yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g‘aliz; uyg‘unlashmagan, yoqimsiz tovushlar

yig'indisi degan izohlar beriladiki, bu so'z semantikasiga salbiy baho yuklaydi. Shunga ko'ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog'liq g'alizlik, yoqimsizlik yashirib yotganga o'xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog'liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari" da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

Og'zaki nutqda h – x, b – p, d – t, z – s kabi birining o'rniga ikkinchisiko'p qo'llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o'rgatishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Bunda xato yozilgan so'zlarni o'quvchilarga slaydlar orqali ko'rsatish, sinf taxtasiga ataylab xato yozish, so'zlari xato yozilgan tarqatma materiallarni qo'llash kabi vositalardan foydalanish unumli. Masalan: 5-sinf ona tili kitobida "F va V undoshlarining talaffuzi va imlosi" mavzusida berilgan 187-mashq. Berilgan so'zlarga qavsdagi ikki harfdan zarurini qo'ying va hosil bo'lgan so'z ishtirokida gaplar tuzing. Sahi (p,f)a, a(f,v)sona, Sharo(f,p)at, Sha(f,v)kat, na(f,p)s, ka(f,v) t, a (f,v)tomat

Yechim:

Sahi(p, f)a-sahifa,

a(f, v)sona-afsona

Sharo(f, p)at-Sharofat

na(f, p)s-nafs

ka(f, v)t-kaft

a(f, v)tomat-avtomat

Sha(f, v)kat-Shavkat

Kakografiya usuli leksikologiya bilan bog'liq mavzularni o'tishda ham qo'l keladi. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, halok-halak, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, oxir-axir-oxur, chog'-choq-choh singari paronim so'zlarni xato yozib, o'quvchilardan ularni to'g'rilab yozishni so'rash ulardagi bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

XULOSA

Umuman olganda, biz – yoshlar vatanimiz O‘zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o‘rganish borasida yagona to‘g‘ri yo‘l turibdi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgano‘zbek tilini mukammal o‘rganishimiz, og‘zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo‘lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan samarani berishi mumkin. Zero, davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kurbonova, M. F. (2020). Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari. Xalk ta'limi, 3
2. Shayxislamov, N. (2020). Kognitiv tilshunoslikda konsept: “To‘y” konsepti va uning universal tabiati. O‘zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar, 54-60.
3. T.Almamatov, Q.M.Yadgarov, Sh.Almamatov., O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion , pedagogik texnologiyalardan foydalanish(Metodik qo‘llanma).-2013.
- 4.Umumiy o‘rta ta’limining 5-sinfi uchun ona tili darsliki (yangi nashr) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan TOSHKENT – 2020